

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

15-APREL

ANDIJON, 2024

IQTISODIY O'SISH VA UNING RIVOJLANISH OMILLARI, IJTIMOIY-IQTISODIY MODELLARI

Ibragimov Alisher Abduhofiz o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti talabasi

Ilmiy rahbar: dots. A.T.Umirov

Annotatsiya: Ushbu tezisda aholining moddiy faravonligini oshirish ishlab chiqarish, balki taqsimot munosabatlarini takomillashtirish, mehnat resurslarining bandligini ta'minlash, investitsion faollikni oshirish va pirovard natijada davlat byudjeti daromadlarining ko'payib borishini ta'minlash, ichki va xalqaro darajadagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni muvaffaqiyatli hal etish va mamlakat aholisining turmush darajasini oshirish keng talqin qilingan.

Kalit so'zlar: Iqtisodiy o'sish, iqtisodiy rivojlanish, YAIM, o'sish suratlari, turmush farovonligi, barqaror iqtisodiy o'sish, iqtisodiyotning tarkibiy tuzilmasi, sanoat, qishloq xo'jaligi, miqdoriy ko'rsatkichlar, tabiiy va mehnat resurslari, kapital, export va import, makroiqtisodiy barqarorlik.

Hozirgi kunda iqtisodiy o'sish nazariyasida iqtisodiy o'sish sur'atlarini ma'lum muddat oraliq'ida erishishgina emas, balki uni uzoq muddat davomida o'sish sur'atlarida saqlash ko'zda tutilmoxda. Ya'ni o'sishni barqarorligini ta'minlovchi omillarni aniqlab ularni takomillashtirish ustida ish olib borish zamonaviy iqtisodiyot nazariyasini oldida turgan asosiy vazifalardan biri bo'lib hisoblanadi. Avvalo, iqtisodiy o'sish deganda aholining moddiy faravonligini oshirish vositasi hisoblanadi. Shu sababli u davlat iqtisodiy siyosatining negizi bo'lib qoladi. Iqtisodiy o'sish - to'liq bandlik bilan mujassamlashgan ishlab chiqarish real hajmining uzoq muddat mobaynida o'sishidir. Iqtisodiy o'sish YAIM, davlat iqtisodiy qudrati va insonlar farovonligining o'sishida o'z ifodasini topadi. Shuningdek, iqtisodiy o'sish bevosita yalpi milliy mahsulot miqdorining mutlaq va aholi jon boshiga hamda iqtisodiy resurs xarajatlari birligi hisobiga ko'payishi hamda sifatning yaxshilanishida va tarkibining takomillashuvida ham ifodalanadi. Iqtisodiy o'sishni aniqlash va asoslab berish paytida quyidagilarga ahamiyat berish kerak:

- 1) Iqtisodiy o'sishni baholash;
- 2) O'sish omillari;
- 3) Iqtisodiy o'sish modellari.

Bularga qo'shimcha ravishda, iqtisodiy o'sish bir nechta omillarga bog'liq:

- Tabiiy resurslar hajmi va sifati;
- Mehnat resurslari hajmi va sifati;
- Asosiy kapital hajmi;
- Texnologiyalar va innovatsiyalar;

Har bir davlat va uning iqtisodiy faoliyatining asosiy maqsadi aholi turmush farovonligini yaxshilash va keyingi o'rinda iqtisodiy jihatdan baquvvat bo'lish hisoblanadi. Dunyoning deyarli barcha davlatlarida iqtisodiy faoliyat uchun iqtisodiy o'sish ko'rsatkichi yillik ravishda hisob kitob qilib boriladi. Ammo, ko'p hollarda uning samaradorligini baholash ikkinchi o'rinda bo'ladi. Shu sababli iqtisodiy o'sish va rivojlanish o'rtaсидаги farqni quyidagi jadval asosida ko'rish mumkin.

1-jadval

Iqtisodiy o'sish va iqtisodiy rivojlanishning taqqoslanma jadvali

	Iqtisodiy o'sish	Iqtisodiy rivojlanish
--	------------------	-----------------------

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

15-APREL

ANDIJON, 2024

Ma'nosi	Iqtisodiy o'sish mamlakatdagi real ishlab chiqarish va xizmatlar soni oshishini nazarda tutadi.	Iqtisodiy rivojlanish nazarda tutadi daromadlar, jamg'armalar va investitsiyalar bilan birga mamlakatning ijtimoiy iqtisodiy sohadagi progressiv tuzilishidagi o'zgarishlarni (institutsional va texnologik o'zgarishlar).
Omillar	O'sish yalpi ichki mahsulot qismlaridan biridagi asta sekin o'sishga bog'liqdir: iste'mol, hukumat xarajatlari, investitsiya va sof export.	Rivojlanish inson kapitali o'sishiga, tengsizlik ko'rsatkichlarining pasayishiga va aholi hayotini yaxshilashga qaratilgan strukturaviy o'zgarishlarga bog'liqdir.
O'lchovlari	Iqtisodiy o'sish miqdoriy faktorlar, masalan haqiqiy yalpi ichki mahsulotning o'sishi yoki odam boshiga to'g'ri keladigan daromadning oshishi bilan o'lchanadi.	Iqtisodiy rivojlanishni baholashda HDI (Inson Rivojlanish Indeksi), gender-moslik indeksi, Inson kambag'allik indeksi (HPI), go'daklarning o'limi, savodxonlik darajasi kabi sifat ko'rsatkichlaridan foydalaniladi.
Ta'sir	Iqtisodiy o'sish iqtisodiyotga miqdoriy o'sish olib keladi.	Iqtisodiy rivojlanish iqtisodiyotning ham sifatiy jihatdan ham miqdoriy jihatidan o'zgarishiga olib keladi.
Aloqadorlik	Iqtisodiy o'sish milliy va kishi boshiga to'g'ri keladigan daromad o'sishini aks ettiradi.	Iqtisodiy rivojlanish esa mamlakatdagi hayot sifatining o'sishini aks ettiradi.

Yangi industrial mamlakatlar (YAIM) iqtisodiy yutug'ining sababi Xalqaro bank tomonidan uch guruh omillari ta'sirini aniqlashni uddalash natijasidagi kengaytirilgan tadqiqot olib borildi:

- ❖ siyosiy va makroiqtisodiy barqarorlikka erishish;
- ❖ inson resurslariga investitsiyalar;
- ❖ tashqi bozorga yo'naltirilganlik.

Tadqiqot shuni ko'satadiki, ishlab chiqarish investitsiyalarining va kapital qo'yilmalarining samaradorligi mehnat resurslarining unumdoorligiga bog'liq. YAIMda mehnatning roli iqtisodiy o'sish omili sifatida o'ta jiddiy. Ishchi kuchi bu yerda yuqori intizomlilik, texnologik va tashkiliy o'zgarishlarga osongina moyillashish, ta'lim va malakaning yuqori darajasi bilan farqlanadi. Janubiy - Sharqiy Osiyo mamlakatlari iqtisodiy o'sishida xorij kapitalining oqib kirishi va mo'tadil proteksionistlik import siyosatining eksportni stimullahtirish bilan bir vaqtda olib borilishi asosiy rol o'ynaydi.

So'ngi yillardagi dunyo mamlakatlar orasida globallashuv kuchayishi natijasida ko'pgina davlatlar iqtisodiy pasayishga yoki tashqi qarzi YAIM ga nisbatan bir necha yuz barobarlab ko'payib ketadigan davlatlar soni ortib bormoqda. Yaponiya rivojlanish modelidan

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

15-APREL

ANDIJON,2024

ilhomlangan Janubiy Koreya strategiyasi, davlat tomonidan sanoatga yo‘naltirilgan katta kuchga ega edi, davlatning iqtisodiy sohaga aralashuvi - sanoat sohalarini to‘g‘ri tanlab rivojlantirish choralari orqali ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish va murakkablashtirish uchun zarur edi, shuning uchun 1960-yillarda sanoatning asosiy yo‘nalishlarida birinchi sektor ustunlik qildi.

Koreyada ishlab chiqilgan iqtisodiy va sanoat siyosatlari quyidagilar edi:

- strategik sohalarga cheklangan vaqt davomidagi bojxona himoyasi;
- sanoat mahsulotlari eksporti uchun subsidiyalar;
- arzon iste’mol kreditlari;
- ma’lum bir hashamatli tovarlaming ichki marketingini taqilash;
- texnologik ta’limni rivojlantirish va iqtisodiyotning ayrim sohalarida xorijiy investitsiyalami tartibga solish.

O‘zbekiston Respublikasida ham so‘ngi yillarda yuqoridagi omillarga katta e’tibor qaratilyapti. Misol uchun, mamlakatda 2023-yil yakuni bo‘yicha yalpi ichki mahsulot hajmi qariyb 1068 trillion so‘mni tashkil qildi. Bundan eng yuqori hissa qo‘sghan tarmoq xizmatlar va sanoat hisoblanadi. Mamlakatimizda ham iqtisodiyotni rivojlantirish hamda O‘zbekiston respublikasida talab va taklif, ish bilan bandlik va ishsizlik va shunga o‘xshash masalalarda muvozanatni saqlash uchun prezidentimizning PF-60-sonli “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot Strategiyasi” to‘grisidagi farmoni qabul qilindi. Ushbu farmonning III yo‘nalishi “Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o’sish sur’atlarini ta’minlash” deb ataldi va bir qator maqsadlarni o‘z ichiga oldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

- 1.O‘zbekiston Respublikasi prezidentining, PF-60 sonli, “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” to‘g‘risidagi farmonidan.
2. X.Xadjaev,I.Bakiyeva va Sh.Sh.Fayziyev “Makroiqtisodiyot”(2015) ma’ruzalar matni.140-bet.
3. M.A.Mamatov, “Iqtisodiy o’sish”(2021) o’quv qo’llanma. 231-236-betlar
4. <https://stat.uz> Davlat statistika qo‘mitasi rasmiy saytidan olindi.